

AQSHning nufuzli nashrida Samarqand sammiti mavzusi

≡ THE DIPLOMAT ☰

[Subscribe for ads-free reading](#)

THE DEBATE | OPINION | CENTRAL ASIA

EU-Central Asia Summit Offers a New Model of Mutually Beneficial Partnership

At the Samarkand Summit, Central Asia articulated its priorities with cohesion and strategic clarity and Europe made clear its interest in translating these ideas into practical steps.

By [Eldor Aripov](#)

April 11, 2025

Amerika Qo'shma Shtatlarining "The Diplomat" nashrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Eldor Aripovning "Yevropa Ittifoqi – Markaziy Osiyo sammiti o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi modelini taklif etmoqda" sarlavhali tahliliy maqolasi e'lon qilindi.

Muallif ko'hna shahrimizda bo'lib o'tgan anjumanda mintaqaga taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari belgilanib, hamjihatlik va strategik hamkorlik masalasi muhokama qilingani, Yevropa esa g'oya va tashabbuslarni birgalikda amaliyotga joriy etishga tayyorligini bayon qilgan.

Materialda xalqaro tizim ishonch inqirozi, mojarov va iqtisodiy bo'linish sharoitida Markaziy Osiyo yuragida joylashgan O'zbekiston o'zaro hurmat, samarali sheriklik va rivojlanish muammolarini birgalikda hal etishga qaratilgan kun tartibini namoyon etayotgani alohida ta'kidlangan.

- Markaziy Osiyo – shimolda Rossiya, sharqda Xitoy va janubda Afg'oniston bilan chegaradosh hududga o'n yilcha oldin mojarov va yopiq chegaralar mintaqasi sifatida qaralar edi, – deb yozadi E.Aripov. – Bugun esa barqaror, uzviy va ochiq hudud sifatida tan olinmoqda. Markaziy Osiyo – Yel sammitidan oldin O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston rahbarlari tomonidan davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi tarixiy bitim hamda Abadiy do'stlik deklaratsiyasi imzolanishi ham ayni o'zgarishlarning yaqqol misolidir. Bu kelishuvlar ko'p yillik chegara muammosini hal etib, mintaqaviy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochdi.

The inaugural Central Asia-European Union Summit and the International Climate Forum – held in Samarkand last week and attended by EU leaders António Costa and Ursula von der Leyen alongside the heads of the five Central Asian nations – stood out as a significant moment amid today's turbulent global context.

At a time when the international system is strained by crises of trust, conflict, and economic fragmentation, Uzbekistan, at the heart of Central Asia, demonstrated that an alternative agenda is not only desirable but increasingly achievable: one anchored in mutual respect, constructive cooperation, and joint efforts to address development challenges.

Central Asia – a region bordering Russia to the north, China to the east, and Afghanistan to the south – was, just a decade ago, widely seen as a zone of unresolved conflicts and sealed borders. Today, it is gaining recognition as a region marked by increasing stability, connectivity, and openness.

A recent illustration of this transformation was the signing of the historic Agreement on the Junction Point of State Borders and the Declaration of Eternal Friendship by the leaders of Uzbekistan, Kyrgyzstan, and Tajikistan, just prior to the Central Asia-EU summit. These agreements helped resolve longstanding territorial disputes and opened new opportunities for regional cooperation.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ma'lumotiga ko'ra, joriy yil Markaziy Osiyo yalpi ichki mahsuloti o'sishi 6 foizga yetishi kutilyapti. Bu global o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqori. Mintaqa iqtisodiy jihatdan taraqqiyotga erishmoqda: ichki savdo 4,5 barobar oshdi, o'zaro investitsiya ikki karra ko'paydi, qo'shma korxonalar soni esa besh marta o'sdi.

SMTI direktori ushbu taraqqiyot markazida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi tashqi siyosat konsepsiysi turganini yozgan. Davlatimiz yetakchisi avval-boshdanoq "qo'shnilar bilan muammosiz" tamoyilni ilgari surganiga e'tibor qaratgan.

AQSH nashri Markaziy Osiyo boy inson kapitali va o'zlashtirilmagan tabiiy resurslarga egaligi, dunyodagi aniqlangan neft va gaz zaxirasining 7 foizi hamda salmoqli miqdorda yashil texnologiya va raqamli transformatsiya uchun zarur noyob metallarni o'z bag'rida saqlayotganini qayd etgan.

Zero, oxirgi yetti yilda Yel va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdo miqdori to'rt barobar oshib, 54 milliard yevroga yetdi. Bu munosabat endi donor va qabul qiluvchi asosida emas, balki o'zaro manfaatli hamkorlik shaklida rivojlanmoqda. Maqolada Yevropa investitsiya bankining Toshkentda mintaqaviy ofisini ochish bo'yicha kelishuv imzolanishi ham alohida e'tiborga molik voqeа ekanı ta'kidlangan. Bu Yelning mintaqada uzoq muddatli va chuqur hamkorlikka sodiqligini ko'rsatadi. O'zbekiston ayni jarayonda muhim hamkor sifatida namoyon bo'lmoqda.

Materialda, shuningdek, Yevropa Ittifoqi Markaziy Osyoni yashil energiya, infratuzilma va innovatsiya uchun ustuvor sarmoya manzili sifatida ko'rishga intilayotgani xususida so'z borgan:

- Yel bizning mintaqamizda karbon bozorini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash niyatini bildirib, "Markaziy Osiyo - Yel toza energiya sherikligi"ni tuzish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini olqishladi. Ko'hna qit'a inson kapitalini rivojlantirishga faol investitsiya kiritmoqda. Erasmus+ dasturi doirasida Markaziy Osiyo talabalari uchun imkoniyatni kengaytirish, sun'iy intellekt, ulkan ma'lumot va fazoviy texnologiya sohasida akademik almashinuvni yo'lga qo'yish hamda raqamli ta'lim va innovatsiya dasturlari orqali yaqinlashish rejalarimiz ham bor.

Umuman, ko'plab fakt, statistika va loyihalar tahliliga asoslangan maqolada mintaqamiz yangi siyosiy-iqtisodiy o'sish sur'atini olganiga urg'u berilgan. Binobarin, Markaziy Osiyo davlatlari o'z manfaatini tobora ko'proq yagona ovoz bilan ifoda etmoqda. Muallif xulosa tarzida Samarcand mana shu mintaqaviy ovozni namoyon etish, vaziyatni munosib baholash uchun qulay maydon bo'lib xizmat qilgani, Markaziy Osiyo davlatlari aniq mexanizm, taklif va hamkorlik platformasini ilgari surganini keltirgan.

Manba